



## TOPONIMLARNING BADIY ASARDAGI O'RNI (O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASI MISOLIDA)

Safarova Olima Mustaf o qizi

Buxoro davlat universiteti lingvistika (o'zbek tili) 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5753406>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021

Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*toponimika, toponim, toponimya, badiiy asarda toponimlarning o'rne, yozuvchi uslubi.*

### ANNOTATSIYA

*maqolada toponimika, toponim va toponimyaning farqli xususiyatlari, toponimlarning badiiy asarlardagi o'rni va ularning o'rganilish ahamiyati masalalari yoritilgan.*

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik jadal sur'atlarda rivojlanib borar ekan, fanning barcha tarmoqlariga o'z ta'sirini sezilarli darajada ko'rsatmoqda. Onomastika fani ham bundan mustasno emas. Bu fanning bo'limlaridan biri toponimlar ham rivojlanib, lug'atlarda, badiiy asarlarda o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Miromonovichning 2019-yil 21- oktabrdagi farmonlari ham o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzining oshishiga, tilning imkoniyatlaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga turtki bo'ldi<sup>1</sup>. Bu esa o'z navbatida toponimika fan tarmog'iga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Badiiy asarlarda toponimlarning o'rni haqida mulohaza yuritishdan oldin, toponimika, toponim va toponimyani bir-biridan farqlay olishimiz kerak. Toponimika (yununcha topos- joy va onyma-ism, nom) - joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonunyatlarini, rivojlanishi va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'lim<sup>2</sup>. Toponimika haqda S.Qorayev quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan. "Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'-adrlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farqlash uchun ham kishilar nom



o'ylab topishgan. Bular joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o'rganadi<sup>3</sup>. Ko'rinib turibdiki, toponimika – toponimlarni o'rganuvchi fan. Toponimiya esa muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui, toponim bo'lsa alohida olingan joy nomi. Toponimlar ham til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonunyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlaridan farq qiladi. Toponimlarda xalqning o'tmishi, urf – odatlari, boshidan kechirgan turli xil siyosiy- ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o'z aksini topgan bo'ladi.

Shunga ko'ra toponimlar muayyan til lug'at boyligining muhim tarkibiy qismi, o'tmish darakchisi sanaladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saqlangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti, aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari sanaladi.

O'zbek toponimikasini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 60- yillaridan boshlangan. O'tgan davr mobaynida o'zbek toponimikasini o'rganish bo'yicha juda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar orasida taniqli geograf olim H.Hasanovning " O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan " nomli monografiyasi alohida o'rin tutadi. Bu asarda geografik nomlar, toponimlar tarixi, ularning xilma- xilligi va shakllanish qonunyatlarini qisqacha bayon etilgan<sup>4</sup>. Shular qatorida T. Nafasov, Z.Do'simov, B. O'rinboyev, T. Rahmatov, S.Qorayev,

N.Oxunov, S.Nayimov va boshqa olimlarimizning say'i harakatlari bilan vatanimizning barcha hududlaridagi toponimlar to'plandi, ularning lisoniy xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar amalga oshirildi. Olimlarimiz qatorida yozuvchilar ham o'zlarining badiiy asarlarida toponimlarni o'rinli qo'llab, ularning boqiyiligini ta'minladi. Shunday yozuvchilarimizdan O'tkir Hoshimov " Dunyoning ishlari" qissasida quyidagi toponimlarni qo'llagan<sup>5</sup>.

1. Bir kuni Namangandan mehmonlar kelib qolishdi. ( Tasalli hikoyasi, 7-bet)

2. –Oyi, -deyman sekin. – Toshkentda yuz qavatli uy bormi? ( Qarz hikoyasi, 13-bet)

3. – Moskova eng katta shaharmi? (Qarz hikoyasi, 13-bet)

4. Toshkentni yaxshi ko'rish uchun o'zimizning Do'mbiobodni yaxshi ko'rgin, xo'pmi? (Qarz hikoyasi, 13-bet)

5. Xo'ja aytdiki, Chirchiqda daryo bormish....( Qarz hikoyasi, 13-bet)

6. Vali Qonqusda oqib ketay degan. Akam olib chiqqan (Qarz hikoyasi, 13-bet)

7. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi ( Gilam paypoq hikoyasi, 14-bet)

8. Toy hammadan uzoqdan – Beshqo'rg'ondan o'ziga o'xshash yuvosh, shoxsiz sigirni oldiga solib olib keldi. ( " Toy" hikoyasi, 30-bet)

9. – Qa'nida turamiz. Shundoq guzar oldidagi qo'shqavat darvoza. ( Sovchilar hikoyasi, 39-bet)

10. – Nastoyashiy Sibir! – dedi negadir jilmayib ( Imon hikoyasi, 76- bet)



11. – Yana qanaqa opamnikiga boramiz? – O'qchiga . Katta opangnikiga. ( Opamni topib oldim hikoyasi, 84-bet)

12. – Yur, – dedi oyim shoshirib. – Kun isib ketmasidan Beshyog'ochga yetib olaylik. (Opamni topib oldim hikoyasi, 85-bet)

13. Ashxobodda yer qimirlaganda kasallarni poyezdda olib kelgan. (Opamni topib oldim hikoyasi, 86-bet)

14. – So'rab-so'rab Makkani topgan ekan, amallab topib olamiz (Opamni topib oldim hikoyasi, 87-bet)

15. Uyog'i Ashxobod, buyog'i Lelinobod – yeti iqlimda ko'rmagan joyi qolmabdi. (Opamni topib oldim hikoyasi, 91-bet)

16. – Bozor kuni Tezakopga olib tushaman , – dedi dadam ishonch bilan. ( Bozor hikoyasi, 93- bet)

17. Hakim naynov-chi ? birinchi o'qituvchilardan emish. Man bilmasam ekan uni! Jinko'chalik otin oyining qo'lida birga o'qiganmiz ( Po'stdumbali moshkichiri hikoyasi, 104- bet)

18. Parkat tomonda Rustam sherday qilich o'ynatib yursam, kamandirimiz chaqirib qo'ydi ( Po'stdumbali moshkichiri hikoyasi, 104- bet)

19. – Shundoqqina Qizil Maydonning oldidagi gastinisaga tushdik. ( Po'stdumbali moshkichiri hikoyasi, 105- bet)

20. Laylak tepadan o'tib, 21. Qozirobodga borganda qaynama buloqdan muzdek suv ichdik. (Oltin baldoq hikoyasi, 114-bet)

22. Yo'lning shundoqqina oqish yaprog'ini chang bosgan, tikanlari "tish qayrab" turgan chakalakzor - chilon jydalar ( shuning uchun bu yerni Chilonzor deyiladi). (Oltin baldoq hikoyasi, 114-bet)

23. "Siymonko'prik" dan o'tishning o'zi bir tomosha . (Oltin baldoq hikoyasi, 115-bet)

24. U qachon qarasa qulog'iga rayhonlar taqib yurar, Darhon arig'i bo'yidagi hovlisida yoz bo'yi rayhonlar barq urib yotardi. ( O'ris bolaning oyisi hikoyasi, 124-bet)

25...Keyin yana Toshkentga kelib qoldik. Qorasuvda turamiz ( Oy quyoshdan nur oladi hioyasi, 144-bet)

26. Kasal bir yoqda qolib o'zimizning suhbatimizga berilib ketdik. Asakaga ko'chib borgani, onasi Orifning vrach bo'lishini orzu qilgani, (27) Orif Andijon medinstitutida o'qigani.. ( Oy quyoshdan nur oladi hioyasi, 144-bet)

28. – Pragada o'z qo'lim bilan yerga qo'ydim . ( Oy quyoshdan nur oladi hioyasi, 152-bet)

29. Bugun Toshkentda, ertaga qarasangiz Samarqandda..(Havas hikoyasi, 164- bet)

30....Tojikistonga komandirovkaga ketuvdila shekilli. (Havas hikoyasi, 164-bet)

31. Yanagi hafta borsangiz , Jahongir Turkmanistonga ketgan bo'ladi. (Havas hikoyasi, 164- bet)

32. – Qani, otlan! – dedi odatdagidek shoshilib. – Jizzaxga ketdik. (Havas hikoyasi, 164- bet)

33. Chorshanba kuni Ko'kterakka borib qo'y olib chiqdim, - deydi chol. ( Kaltakesakning dumi hikoyasi, 1687-bet)

34. Kislovodskka dam olishga borgan edik. ( Alla hikoyasi, 175-bet)

Ko'rinib turibdiki, asarda qo'llangan toponimlar yozuvchining mahorati va uslubini belgilab beradi. Badiiy asarlarda



toponimlarning qo'llanishi esa ularning uzoq muddat saqlanib qolinshini, kitobxonning joy nomlarining kelib

chiqishiga bo'lgan qiziqishini oshiradi va lug'atimizdagi toponimlarning saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Ozbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora –tadbirlari to'g'risidagi PF- 5850- sonli Farmoni. 2019- yil 21- oktabr.[https:// lex.uz / docs/ -4561730](https://lex.uz/docs/-4561730)
2. T.Nafasov " O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" - Toshkent , 2007.59-80 b
3. Qorayev S. Toponimika qo'llanmasi - Toshkent , 2006. 5 b.
4. O'zbek toponimikasi va uning muammolari.O'zbek toponimikasi tarixidan ma'ruzalar to'plami 2 b .[http:// library. ziyonet.uz](http://library.ziyonet.uz)
5. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari qissasi "- " Sharq" nashriyoti, Toshkent 2018.